



ZAMONAVIY MUFASSIR MUHAMMAD ALI SOBUNIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

R.Jamolova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10960000>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-April 2024 yil

Ma'qullandi: 05- April 2024 yil

Nashr qilindi: 11- April 2024 yil

KEYWORDS

Muhammad Ali ibn Jamil Sobuniy Halabiy 1930-yilning 1-yanvarida Suriyaning Halab shahrida, ziyolilar oilasida tavallud topdi.

ABSTRACT

Islom olami har asrda turli ulamolarning ilmiy faoliyati bilan yanada boyib boradi. Har bir olim o'z izlanishi davomida avvalgi ulamolar fikrlarini jamlab, sodda ko'rinishda keyingi avlodlarga yetkazishga harakat qiladi. XXI asr ham shunday ulamolarning ilmiy merosidan holi emas. Ulardan biri, Ahli sunna val jamoaga mansub zamonaviy olimlaridan biri bo'lgan Muhammad Ali Sobuniy islom olamining atoqli olimlari qatorida sanalib ulgurgan. Salkam bir asrga yaqin hayot kechirib, umrining asosiy qismini ilm yo'lida sarflagan alloma, islom ilmlarining turli sohalariga o'z hissasini qo'shgan bo'lsada, u tafsir ilmi borasida qilgan mehnatlari bilan shuhrat topgan.

Islom olami har asrda turli ulamolarning ilmiy faoliyati bilan yanada boyib boradi. Har bir olim o'z izlanishi davomida avvalgi ulamolar fikrlarini jamlab, sodda ko'rinishda keyingi avlodlarga yetkazishga harakat qiladi. XXI asr ham shunday ulamolarning ilmiy merosidan holi emas. Ulardan biri, Ahli sunna val jamoaga mansub zamonaviy olimlaridan biri bo'lgan Muhammad Ali Sobuniy islom olamining atoqli olimlari qatorida sanalib ulgurgan. Salkam bir asrga yaqin hayot kechirib, umrining asosiy qismini ilm yo'lida sarflagan alloma, islom ilmlarining turli sohalariga o'z hissasini qo'shgan bo'lsada, u tafsir ilmi borasida qilgan mehnatlari bilan shuhrat topgan.

Muhammad Ali ibn Jamil Sobuniy Halabiy 1930-yilning 1-yanvarida Suriyaning Halab shahrida, ziyolilar oilasida tavallud topdi. Bu oiladan Atoullah Sobuniy, Ahmad Sobuniy va boshqa allomalar kabi Halabning ko'plab ulamolari yetishib chiqqan¹. Otasi shayx Jamil Sobuniy ham Halabdagi "Umaviy jome" masjidida mudarrisi bo'lib, Halabdagi o'z davrining katta olimlaridan edi. U o'g'lining yetuk olim bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shgan, alloma arab tili va dastlabki diniy ilmlarni, xususan faroiz ilmini otasidan o'rnandi. Muhammad Sobuniy yoshlik paytidan boshlab Qur'on darslariga qo'shilib, o'n to'rt yoshida uni to'liq yod oldi. Yoshlik chog'idanoq Suriyaning katta olimlaridan tahsil olib, boshlang'ich maktabni tugatgach, o'rta maktabni tijoratga ixtisoslashgan maktabda davom ettirdi. U yerda bir yil

¹ <https://islamsyria.com/ar/%D9%85%D8%AD%D9%85%D8%AF-%D8%B9%D9%84%D9%8A-%D8%A7%D9%84%D8%B5%D8%A7%D8%A8%D9%88%D9%86%D9%8A/%D8%A7%D9%84%D8%AA%D8%B1%D8%A7%D8%AC%D9%85> (27.10.2023)

o'qigach, ushbu yo'nalish unga to'g'ri kelmasligini tushunib yetib, o'qishini o'zgartirdi. Halab shahridagi Umaviylar davrida qurilgan "Xusraviyya" nomli o'rta maktabda ta'lim oldi. Mazkur maktab maorif vazirligiga qarashli bo'lib, unda diniy va dunyoviy darslar jamlangan edi. Unda diniy (shar'iy) fanlardan tafsir, hadis, fiqh, usul, faroiz, shuningdek, dunyoviy (kavniy) fanlardan kimyo, fizika, algebra, geometriya, tarix, geografiya va ingliz tilni o'rgandi. Ushbu dargohda alloma islom olamida muayyan o'ringa ega bo'lgan ustozlarini uchratdi. Bular qatorida Shayx Muhammad Sa'id Idlibiy (uning eng katta shayxi), Shayx Ahmad Shammo' (undan hanafiy fiqhini ta'lim olgan), Shayx Muhammad Najib Xiyota (qorilar shayxi, undan Qur'on va fiqh ilmini o'rganadi), Shayx Muhammad Rog'ib Tobbax (tarix fanidagi ustози) va shu kabi yana o'nlab katta ulamolar bor. Shayx Sobuniy tahsil olgan ustozlari ichida beshtasidan eng ko'p samara olgan bo'lib, ulardan to'rttasi yuqorida zikr qilindi. (Beshinchi ustози Muhammad Najib Siroj – katta olimlardan hisoblanib, undan tafsir va hadisni tahsil olgan.) Yosh olim mazkur o'rta maktabda tafsir ilmi, hadis va uning istelohlari, fiqh, siyrat va islom tarixi, shuningdek, arab tili ilmlari tarkibidagi sarf, nahv va balog'at kabi asosiy ilmlarni o'rgandi. 1949-yili o'rta maktabni a'lo bahoga bitirgach, Suriya vaqf vazirligi Muhammad Ali Sobuniyini o'z hisobidan iqtidorli talabalar qatorida Qohiradagi "Al-Azhar" universitetiga jo'natdi. U yerning shariat fakultetini ham 1952-yili oliy baholarga tamomladi. 1954-yil mutaxassislik o'qishini tamomlab, Azhari sharifning "Shar'iy sud mutaxassisligi" diplomini a'lo baholar bilan qo'lga kiritdi. Bu diplom o'sha vaqtlarda eng oliy diplom hisoblanib, hozirgi kundagi doktorlik diplomi bilan barobardir².

Misrdagi ta'limni tugatgach, o'z yurti Suriyaga kelib, olgan bilimlarini targ'ib qilish va o'z yurtidagi talabalarga foyda keltirish maqsadida 8 yil davomida, 1955-yildan 1962-yilga qadar Halab shahridagi o'rta maktabda "Islom madaniyati" fanidan dars berdi. 8 yillik muallimlikdan so'ng bilimlarini yanada mukammal qilib, mustahkamlash uchun Misrga ketdi, ammo o'sha vaqtdagi mavjud siyosiy vaziyat bunga imkon bermadi.

Suriyaning ta'lim vazirligi tomonidan maxsus delegatsiya shartnoma asosida Saudiya Arabistonining Makka shahridagi "Islomiy fanlar, tarbiya va shariat" fakultetiga o'qituvchi sifatida yuborilganda, shayx Muhammad Ali Sobuniy yuborilganlar qatorida yetakchilik qildi. Alloma Makkada Malik Abdulaziz universitetidagi pedagogika fakulteti hamda "Shariat va islomiy ilmlar" fakultetida 28 yilga yaqin dars berdi. Muallimlik faoliyati nihoyasida "Ummul quro" universiteti uning ilmiy bahsdagi va kitob yozish sohasidagi faoliyatiga e'tibor qaratdi hamda Sobuniyini "Islom merosini ilmiy tadqiq qilish va qayta tiklash" markaziga ilmiy tadqiqotchi etib tayinladi. Unga islom merosi bo'lgan ba'zi kitoblarni tahrir qilish vazifasi ham yuklandi. Shunday kitoblardan biri, butun dunyoda yagona bo'lgan, ikkinchi nusxasi topilmaydigan o'ta noyob qo'lyozma- imom Abu Ja'far Nahhos qalamiga mansub "Ma'onil Qur'on" nomli tafsirni besh yil davomida o'rganib, mukammal tarzda olti juzda tadqiq qildi. U kitob Makkadagi "Ummul quro" universiteti nomidan, mazkur universitet qoshidagi "Ilmiy bahs markazi" va "Islomiy merosni tiriltirish" nashriyotida chop etildi³.

² [Muhammad Ali Sobuniy – XOJA BUXORIY O'RTA MAXSUS BILIM YURTI](#) (05.11.2023)

³ [Imom Muhammad Ali Sobuniyning hayot yo'l » O'zbekiston musulmonlar idorasi Qashqadaryo viloyati vakilligi rasmiy sayti \(nasafziyo.uz\)](#) (15.12.2023)

1998-yildan boshlab Shayx Muhammad Ali Sobuniy “Butun Islom olami robitasi” tashkiloti qoshidagi “Qur’on va sunnatdagi ilmiy mo’jizalar” hay’atida maslahatchi vazifasida bir necha yil faoliyat yuritdi.

Shayx Muhammad Ali Sobuniy ustozlik va kitob ta’lif qilishdan tashqari, Masjidul Haramda imomlik ham qilgan.⁴ U haj mavsumlarida fatvo berishda ham rahbarlik qilgan. Jidda shahridagi masjidlardan birida taxminan 8 yil davom etgan haftalik tafsir saboqlarini berib, talabalariga tushuntirib bergan. Shuningdek, shayx Saudiya Arabistoni telekanalida namoyish etiladigan Qur’oni karimning to’liq tafsiriga bag’ishlangan olti yuz qismdan ziyod ko’rsatuv su’ratga olinishida ishtirok etgan. Bu ish taxminan 2 yil davom etib, 1999-yilda nihoyasiga yetdi.

Alloma bir qator konferensiya va tadbirlarda ham qatnashardi. 2007-yil Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida o’tkazilgan mana shunday yig’ilishlardan birida uzluksiz sa’y-harakatlari, ayniqsa, Qur’oni karim tafsirida samarali ijod qilgani tufayli Shayx Muhammad Ali Sobuniy “Dubay xalqaro Qur’oni karim mukofotining tashkiliy qo’mitasi” tomonidan “Yilning islomiy shaxsiyati” nomiga munosib deb topildi. Tashkiliy qo’mita rahbari qo’mita qarorgohida bo’lib o’tgan mazkur matbuot anjumanida shunday degani keltiriladi: “Shayx Sobuniy islomiy shaxsiyat sifatida qo’mita tomonidan qo’yilgan ko’plab mezonlarga asoslanib tanlandi. Shayx Sobuniy ko’plab shar’iy ilmlarda, xossatan Qur’on ilmlarida mohir bo’lgan ulamolardan bo’lib, uning asarlari orasida “Sofvatut tafasir” kitobi, “Rovai’ul bayon fiy tafsiril ayatil ahkam” va boshqalar bor”. Shayx Sobuniy unga qarata shunday javob bergan: “Men o’zimni islom va musulmonlar uchun Alloh taoloning kitobi va shar’iy ilmlarga xizmat qilish yo’lida nazr qilganman”⁵.

Shayx Muhammad Abduh Yamaniy so’zlari orasida shunday degan edi: “Haqiqat shuki, Shayx Sobuniy har qanday e’tirofqa loyiqdir, chunki u halollik, sabr va iymon bilan indamay mehnat qilgan hamda ozorni sabr bilan, tanqidni esa ochiq ko’ngillik bilan qabul qilgan insondir. Guvohlik berib aytamanki, bu inson qadim zamonlardagi biz bilgan olimlarning axloqi bilan ilmga xizmat qilgandir”⁶.

Imom Muhammad Ali Sobuniy ko’p sohalarda o’ttizdan ortiq qimmatli asarlar yaratgan. Bu asarlarning bir qismi o’zining mualliflik asarlari, bir qismi qisqartma, yana bir qismi tadqiqotlardir. Bu ilmiy faoliyatlari orasida tafsir ilmidagi xizmatlari alohida keltirilib, zamonaviy mufassir sifatida e’tirof etiladi. Sobuniy o’tgan davr mufassirlari orasida eng ko’p asar yaratgan mufassir bo’lib⁷, uning ko’plab asarlari ingliz, fransuz, rus, fors, turk va urdu kabi bir qancha tillarga tarjima qilingan. Uning mashhur tafsirlaridan biri bo’lgan “Sofvatut tafasir” (Tafsirlar sarasi) Qur’oni karim tafsiri sohasiga bag’ishlangan mataqaddim va mataaxxir mufassirlarning tafsirlari

⁴ [Muhammad Ali Sobuniy – XOJA BUXORIY O’RTA MAXSUS BILIM YURTI](#) (05.11.2023)

⁵ <https://islamsyria.com/ar/%D9%85%D8%AD%D9%85%D8%AF-%D8%B9%D9%84%D9%8A-%D8%A7%D9%84%D8%B5%D8%A7%D8%A8%D9%88%D9%86%D9%8A/%D8%A7%D9%84%D8%AA%D8%B1%D8%A7%D8%AC%D9%85> (27.10.2023)

⁶ <https://islamsyria.com/ar/%D9%85%D8%AD%D9%85%D8%AF-%D8%B9%D9%84%D9%8A-%D8%A7%D9%84%D8%B5%D8%A7%D8%A8%D9%88%D9%86%D9%8A/%D8%A7%D9%84%D8%AA%D8%B1%D8%A7%D8%AC%D9%85> (27.10.2023)

⁷ [Imom Muhammad Ali Sobuniyning hayot yo’li » O’zbekiston musulmonlar idorasi Qashqadaryo viloyati vakilligi rasmiy sayti \(nasafziyo.uz\)](#) (15.12.2023)

ma'nolarini o'zida jamlagan hamda ushbu tafsir o'ziga xos uslubi va oson iborasi bilan boshqa tafsirlardan ajralib turadi.

Alloma islom ilmlarining ko'plab sohalarida, xossatan, hadis ilmi, qur'on ilmlari va fiqh kabi fanlarda ham sezilarli xizmat qilib, mazkur ilmlar bo'yicha kitoblar ta'lif qildi. "At-tibyon fi ulumil-Qur'on" va fiqhga oid "Al-fiqhush shar'iy al-muyassar" asari hamda "Sihohi sitta" (Olti sahih to'plam) kitoblarining sharhi bo'lgan "Min kunuzis sunnatin nabaviyyatil mutohharoh" (Pok nabaviy sunnat xazinalari) kitoblari shular jumlasidandir.

Hozirda mujtahidlarning Qur'ondan qanday hukm olishlariga oid masalalarni keng yoritib o'tilgan "Ravoi'ul-bayon" nomli asari, O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o'rta maxsus islom bilim yurtlarida zamonaviy tafsir ilmiga oid manba sifatida o'qitib kelinmoqda. Bundan tashqari alloma "Sofvatut tafasir" (Tafsirlar sarasi), "Al-mavaris fish shari'atil-islamiyyah" (Islom shari'atida meroslar), "As-sunnatun nabaviyya qismun minal vahyil-munazzal" (Sunnati nabaviyya – Ilohiy vahiyning bir qismi), "Harokatul arzi va davronuha – haqiqotun ilmiyyatun asbatahal Qur'on" (Yer harakati va aylanishi – Qur'on isbot qilgan ilmiy haqiqatdir) va boshqa ko'plab kitob va maqolalar muallifidir⁸. Mana shunday keng ko'lamdagi mehnatlari hamda Qur'on va sunnat doirasida olib borgan izchil ilmiy faoliyati natijasida Muhammad Ali Sobuniy shogirdlari orasida "kitob va sunnat xodimi" deya nom olgan⁹.

Mufassir va faqih bo'lgan shayx Muhammad Ali ibn Jamil Sobuniy 2021-yilning 19-mayida haftaning juma kunida Turkiya shimolida joylashgan, Istanbul yaqinidagi Yalovo shahrida to'qson bir yoshida bu dunyodan ko'z yumdi.

Hayotining katta qismini ilm olish va uni yoyishga bag'ishlagan olim o'zidan juda katta ilmiy xazinani meros qilib qoldirdi. Uning 50 ka yaqin asarlari orasida o'ndan ortig'i tafsirlardan, o'nga yaqini esa hadislar va siyrat asarlaridan iboratdir. Alloma kitoblar ta'lif qilishdan tashqari, muallimlik qilib, turli diniy sohalaridan olimlar, imomlarni yetishtirdi. Asarlarida esa mutaqaddim va mutaaxxir ulamolarning eng sara fikrlarini jamlab keltirdi. Muhammad Ali Sobuniy asarlari sodda bo'lib, har qanday darajadagi tolibi ilm o'qishiga mo'ljallangandir. Olimning asarlarini o'qigan o'quvchi salaf ulamolarining ham, xalaf ulamolarining ham qarashlari bilan tanishadi. Allomaning kitoblarida o'z zamonasining dolzarb mavzularini va noto'g'ri fikrlarga qilgan raddiyalarini ham ko'rish mumkin. Din yo'lidagi faoliyati, Qur'oni karim va sunnat yo'lidagi xizmatlari uchun Sobuniyning nomi "Qur'on va sunnat xodimi" unvoni bilan zikr qilinadigan bo'ldi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Isom Ahmad Irsan Shahada. As-Sobuniy va manhajuhu fi at-tafsir min xilal kitabihi "Sofvatut tafasir". – Nablus.: Najah milliy universiteti, 2013. – 220 b.
2. Imom Muhammad Ali Sobuniyning ijodiy uslubi — XOJA BUXORIY O'RTA MAXSUS BILIM YURTI (28.08.2023)
3. Muhammad Ali Sobuniy – XOJA BUXORIY O'RTA MAXSUS BILIM YURTI (05.11.2023)

⁸ [Muhammad Ali Sobuniy – XOJA BUXORIY O'RTA MAXSUS BILIM YURTI](#) (05.11.2023)

⁹ qar.: Isom Ahmad Irsan Shahada. As-Sobuniy va manhajuhu fi at-tafsir min xilal kitabihi "Sofvatut tafasir". – Nablus.: Najah milliy universiteti, 2013. – 220 b.

https://m.facebook.com/story.php?story_fbid=pfbid02ktCCsicAuDjjJ6V55EhKbbdhokHQoGhi3nbhLuuJNjLzZWgzg3HACRvSphsScKXcl&id=128304210580446&locale=ar_AR (10.12.2023)

4. Imom Muhammad Ali Sobuniyning hayot yo'l » O'zbekiston musulmonlar idorasi
Qashqadaryo viloyati vakilligi rasmiy sayti (nasafziyo.uz) (15.12.2023)



INNOVATIVE
ACADEMY